

TOSHKENT VILOYATIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Agabekov A.Y., i.f.n.

Bo`riboyev D.B.

Ipak yoli innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada Toshkent viloyatining ekoturistik imkoniyatlari xususida fikrlar keltirilgan. Ekologik turizm tushunchalari talqini, uning shakllanish xususiyatlari, turlari, tabiatning noyob yodgorliklari, qo`riqlanadigan hududlar, viloyatning ekoturistik marshrutlarini tashkil etish va boshqa imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so`zlar: ekoturistik marshrut, agroturizm, tarixiy turizm, diniy turizm, geologik turizm, geomorfologik turizm, qo`riqxonalar, rekreatsiya.

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo`yicha ekoturizmni rivojlantirishda tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlardan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Butunjahon turistik tashkilotining hisobotida turizmni barqaror rivojlantirishning 10 ta dasturi bayon etilgan bo`lib, unda “ekoturizmni rivojlantirish uchun iqlim o`zgarishi, chiqindilarni nazorat qilish, yerlardan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni va alohida muhofaza etiladigan hududlarni saqlash masalalariga alohida e`tibor berish” lozimligi ta`kidlangan. Shuning uchun ham har bir hududda ekoturizmning tarkibini, turini takomillashtirish va imkoniyatlarini aniqlash, uning samaradorligini oshirishni talab etiladi. Ekologik turizm o`tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta - sekin kirib kela boshladi.

Tabiat quchog`iga sayyohat qilishni tashkillashtirish to`g`risida fikr yuritganda, ko`pincha “ekoturizm” atamasi tilga olinadi. Aslida ekoturizm, bir tomondan, turistik bozorda jadal o`sib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomondan esa insoning tabiatga ijobiy ta`siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo`lib, faqat g`oyagina emas, balki, umumiy turizmning aniq turi, hisoblanadi. Uning atrof-muhitga ta`siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo`lishi mumkin. “Ekoturizm” qo`riqxonalar hududlari va tabiiy bog`larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo`llanilmoqda. Bu sayyohat turining dunyo miqyosida jadal o`shishiga sabab faqat atrof-muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar–tog` bag`ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg`oqlari, tekisliklar va o`rmonzorlar borgan sari ko`proq o`zlashtirilayotganligi hamdir.

Ekoturizm - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog`lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ekologik turizm -

tabiiy resurslarni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish va sayyohlik hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish uchun mo‘ljallangan ekotizimning yaxlitligini buzmaydigan yovvoyi tabiat va destinatsiya madaniyatini bilish maqsadida amalga oshiriladigan tabiiy yo‘naltirilgan turizmning bir shakli(1).

Tadqiqot obyekti va uslublari. Toshkent viloyati shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari G‘arbiy Tyanshan tog‘lari va uning tarmoqlari (Qurama, Piskom va Ugom tog‘lari) bilan band. Eng baland joyi Piskom tizmasidagi Manas tog‘i (4484 m). Chatqol va Qurama tog‘lari orasida Ohangaron daryosi kesib o‘tgan, Ohangaron platosi joylashgan. Viloyat hududining katta qismi Sirdaryo tomon qiyalanib boradigan tog‘ oldi tekisligi (Chirchiq-Ohangaron vodiysi)dan iborat. Ohangaron daryo vodiysi, Qurama tog‘i, Angren-Olmaliq atrofida foydali qazilmalardan mis, polimetall rudalari, oltin, kumush, qo‘rg‘oshin, alyuminiy xom ashyosi, qo‘ng‘ir kumir, molibden konlari, plavik shpati va dala shpati, turli xil qurilish materiallari bor. Termal va mineral suv zaxiralari kup. Viloyat kuchli seysmik zonada joylashgan. Ayniqsa, Chirchiq va Ohangaron havzalarida aniq seziladigan zilzilalar buning ifodasidir. Juda kuchli zilzila 1868-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tdi va 1966-yilda takrorlandi. Turli intensivlikdagi yer osti silkinishlar vaqtvaqti bilan hozirgi kunda ham davom etmoqda.

O‘zbekistonda turizm va uning (eko, agro, tarixiy, diniy va b.) sohalarida xizmat turlarini tashkil etish, hududlarning imkoniyatlarini e‘tiborga olgan holda turizmni rivojlantirish bo‘yicha bir qator amaliy tadbirlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni taklif qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish” hamda “odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Binobarin, tabiiy sharoiti va landshaftlari turlicha bo‘lgan Toshkent viloyatining ekoturistik imkoniyatlari tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi(2).

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Toshkent hududining Iqlimi keskin kontinental. Qishi nam, nisbatan iliq, yozi uzoq, issiq va quruq. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi — 1,3°, -1,8°, eng past temperatura -34° (tekislikda), -38° (tog‘ etaklarida), iyulnint o‘rtacha tempaturasi 26,8°, eng yuqori temperatura 43-47°. Tekislik qismida yiliga 250 mm, tog‘ oldilariga 350–400 mm, tog‘larda 500 mm yog‘in yog‘adi. Yog‘inning ko‘p qismi bahor va qishda yog‘adi. Qor tog‘lardagina uzoqroq saqlanadi. Vegetatsiya davri tekislik qismida 210 kun. Daryolari Sirdaryo havzasiga mansub (Sirdaryo — o‘rta oqimi, uz. 125 km va uning irmoklari —Chirchiq, Piskom va Ohangaron). Bular Tyanshan tog‘laridan boshlanadi va suvidan elektr energiya olishda va sug‘orish ishlarida foydalaniladi. Sug‘orish kanallari: Bo‘zsuv,

Qorasuv, Dalvarzin, Toshkent va boshqa Tuyabo‘g‘iz suv ombori („Toshkent dengizi“), Chorvoq suv ombori, Ohangaron suv omborlari bor.

Toshkent viloyati Oz‘bekiston Respublikasining shimoliy-sharqida joylashgan. Maydoni 15.3 ming kv.km. Viloyatda 15 ta tuman, 16 ta shahar, 18 ta shahar kurgoni va 146 ta kishlok fukarolari yiginlari mavjud. Mamlakat poytaxti — Toshkent shahri bir vakxning uzida viloyatning ma‘muriy markazi xamdir. Toshkent viloyatida ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishda ko‘plab tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar qatori geologik, geomorfologik, iqlimiy, gidrologik, organik, tarixiy geografik kabi ekoturistik resurslarning turlari mavjudligi muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda zamonaviy ekoturizm xalqaro aloqa tizimi turli xizmatlarning yaratilishini taqozo etishi bilan ahamiyatli. Binobarin, sayyoh uchun nafaqat tarixiy, arxitektura obidalari, qolaversa tabiiy, diniy, etnografik, qo‘riqlanadigan hududlar va boshqalar ham zarurdir. Shundan kelib chiqqan holda, ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishga qator omillar ta‘sirini aniqlash mumkin. Bu borada xususan ikki yirik, ya‘ni tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ekoturizmni rivojlantirish uchun Toshkent viloyatida zamonaviy aeroport, yo‘llar, savdo shaxobchalari, madaniy dam olish uylari, shahar yodgorliklarining yaxshi saqlanganligi ahamiyatlidir. Ekoturizmni tashkil etish, turistik marshrutlar, ekskursiyalar uyushtirish avvalo qulay tabiiy sharoitning mavjudligini talab qiladi. Chunki o‘ziga xos relyef, iqlim va turli-tuman ekzotik landshaft manzaralari kishilarni o‘ziga tortadi. Toshkent viloyati tabiiy va iqlimiy sharoiti qulay bo‘lganligi sababli o‘lkada qadimdan aholi manzilgohlari vujudga kelgan, mahalliy xalq dehqonchilik va hunarmandchilik kabi sohalar bilan shug‘ullangan.

Toshkent viloyati qadimdan Buyuk ipak yo‘lidagi ilm-fan, hunarmandchilik, madaniyat taraqqiy etgan makonlardan biri bulgan. Xo‘jakent yaqinidagi g‘ordan topilgan tosh davriga mansub odam suyagining qoldiqlari va qoyalardagi suratlar bu vohada qadimda ibtidoiy odamlar yashaganligidan dalolat beradi. Tog‘lik qismining xushmanzaraligi rekreatsiya va turizmning barcha turlarining rivojlanishiga ancha qulay. Toshkent viloyatida ekoturistlar tabiatning noyob obyektlarini, geomorfologik, gidrologik va boshqa xususiyatlarni hamda paleontologik topilmalarni tomosha qilishadi. Doimiy qor va muzliklar, tog‘ va daryo, soy vodiylari, tabiat yodgorliklari, karst shakllari, g‘orlar, daralar ajoyib ekskursiya obyektlari bo‘la oladi. Viloyatda 2,4 mln. kishi istiqomat qiladi va aholi soni jixatidan respublikada uchinchi urinda turadi. Aholi zichligi jixatidan xar bir kv.km.ga 155 kishi tugri keladi. Aholining milliy tarkibi: uzbeklar, ruslar, qozoqlar, tojiklar, qirg‘izlar, uyg`urlar, tatarlar, koreyslar, ukrainlar va boshqa 80 ga yaqin millat hamda elatlardan iborat.

Viloyatning shimoliy-sharqiy va sharqiy qismini Chotqol, Qurama, Piskom va O‘gam tizma tog‘lari tashkil qiladi. Hududining katta qismi janub va janubiy garbga tomon Sirdaryoga qiya tushgan tog‘oldi tekisligidan iborat. Viloyat yuqori seysmik

zonada joylashgan. Iqlimi continental: qishi nam, nisbatan yumshoq, yozi issiq, quruq -Yanvarning o`rtacha harorati — 1.3 S dan — 1.8 S gacha, iyulniki 26.8 S. Yiliga tekisliklarga 250 mm, tog`oldilariga 350–400 mm, tog`larga 500 mm yog`in tushadi. Qor qoplami faqat tog`larda turg`un. Vegetatsiya davri tekisliklarda qariyb 210 kun. Asosiy daryolari: Sirdaryo (Toshkent viloyatida uzunligi 125 km) va uning irmoqlari, Chirchiq; (Pekom bilan birga) hamda Angren hisoblanadi.

Buni buyk alloma Muxammad al-Xorazmiy, mashhur tarixchi at-Tabariy, jugrofiya olimi al-Istaxriy va boshqalar kiritilgan muhim ma`lumotlar ham tasdiqlaydi. Bu yerda yasalgan hunarmandchilik va zargarlik buyumlari, qurol-aslaxalar butun Sharqda shuxrat qozongan. Bizgacha etib kelgan „Xudud al-olan“ nomli tarixiy kitobda: „Choch — bu katta viloyat, xalki jangovar va saxiydir. U yerda kamon va uq-yoy yasaladi“, — degan so`zlar bitilgani ham buni yaqqol isbotlaydi(3).

Bu mukaddas zamin uz tarixida takdirning kup-kup sinovlarini, shahar va kishloklarni vironaga aylantirgan mugullar boskini kabi balo-kazolarni xam boshidan kechirgan. Zangi Ota tarixiy manbalarning shoxidlik berishicha, faqat so-xibkiron Amir Temur davriga kelib, va qaytadan rivojlanish boshlangan. Ko`plab shahar-qishloqlar yangidan qad rostlab, obod bo`lgan. Shu ma`noda viloyat hududidagi mashhur sufiy alloma Oyxo`ja ibn Toshxo`ja Zangiota maqbarasining bunyod etilishi bilan bog`lik ibratli tarixiy voqealar teran ramziy ma`noga ega desak hech qanday mubolag`a bo`lmaydi.

Ma`lumki, bobomiz Amir Temur xazrat Yassaviyga maqbara qurish harakatini boshlaganida, nima uchundir, ish hadeganda yurishavermagan. Bu harakatning sababini bilolmay, xayron bo`lib yurganida, u bir kechasi tush ko`radi. Tushida nuroniy bir zot Yassaviyga maqbara qurishdan avval Zangiotaning qabrini obod qilish lozimligini soxibqiron bobomizga ayon qiladi. Shunda Amir Temur Zangiota ruxini shod etish uchun maxbara qurishga kirishadi. Bu muhtasham yodgorlik majmuining qurilishi keyinchalik Ulug`bek Mirzo tomonidan oxiriga etkaziladi.

Butun islom dunyosida ma`lum va mashhur Zangiota majmuining keyingi yillarda tubdan qayta ta`mirlanib, go`zal va obod bir ziyoratgoxga aylantirilgani viloyat ahlining savobli ishlaridan biridir. Yana bir misol. Tarixdan ma`lumki, buyuk soxibqiron Amir Temur mamlakatimiz poytaxtiga, Toshkent viloyatiga juda ko`p tashrif buyurgan. Chinoz, Oqqo`rgon tumanlarida buyuk zotning muborak izlari qolgan. Oqqo`rgon tumanida Banikent nomli shaharni qayta tiklab, uni sevimli farzandi Shoxrux nomiga „Shoxruxiya“ deb atagan.

Toshkent viloyati haqida so`z yuritilar ekan, bu vohaning Buyuk ipak yo`lidagi ilm-fan, hunarmandchilik madaniyat taraqqiy etgan makonlardan biri bo`lganligiga alohida e`tibor qaratiladi. Darhaqiqat, Xo`jakent yaqinidagi gordan topilgan tosh davriga mansub odam suyagining qoldiqlari va qoyalardagi suratlar bu hodisa ajdodlarimiz juda uzoq zamonlardan beri yashab kelganidan dalolat beradi.

Xulosa. Ekoturizmni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- jahon turistik xizmat bozorida O‘zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potentsiali va resurslarini namoyish qilish;
- hududlarning, ayniqsa tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag‘batlantirish;
- turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish;
- O‘zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar hajmini jadal oshirish;
- istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish;

Toshkent viloyati ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalari tomonidan “Toshkent-Chorvoq-Toshkent”, “Toshkent-Bildirsoy-Chimyon-Toshkent”, kabi marshrutlarda o‘tkazilgan ekoturlar, cho‘l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e‘tibor va e‘tiroflariga sazovor bo‘lmoqda.

Ammo, bu boradagi tahlillar ekoturizm yo‘nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan, zarur bo‘lganda birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Sababi, tarixiy turizm, diniy turizm, tibbiyot turizmi, madaniy turizm kabi turizm turlari asosan shahar joylarda, turistik infrastruktura va servis ob‘ektlari yetarli joylarda o‘tkazilsa, ekoturlar asosan tabiat qo‘ynida va geotizimlarda olib boriladi, aksariyat ekoturlar ekstremalligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pardayev M.Q. Ekologik turizm asoslari. Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2015. 95-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
3. Islomova R.A. Ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2014, 131-b.